

UDK: 632.934

DORIVOR O'SIMLIKLARDAGI KASALLIKLARGA QARSHI PREPARTLARNI SAMARADORLIGI

Rasulova Madina Shuxratovna, Isamiddinov Ilxom To'layevich, O'simliklar karantini
va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotation. The article offers the results of scientific research on the determination of the biological effectiveness of biological products used against root rot and powdery mildew of medicinal plants.

Keywords. Medicines, seeds. Fungus, fungicide, biological product, root rot, powdery mildew, disease.

Insoniyat xayoti usimliklar olami bilan uzviy boglangan, chunki ular insonni tuydirgan, kiyintirgan, davolagan, qurilish, dorivor va texnik xomashyo manbai bo'lib xizmat kilgan.

Respublikada keyingi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida ko'pgina ishlar bajarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ -44670-son qarorida dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida aytib o'tilgan. Xozirda yangi dorivor o'simlik turlari Respublikamiz sharoitida introduksiya qilinib, ishlab chiqarishga tadbiriq etilmoqda.

Adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha dorivor o'simlik sifatida xalq tabobatida bir qancha kasalliklarni davolashda qadimdan ishlatib kelinadi. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning har xil qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlashga o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi. Masalan, po'stloq, kurtak erta bahorda, barg o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, gullari to'la ochilganda, meva va urug'lari pishganda, yer osti organlari (ildizi, ildizpoyasi va piyozi) erta bahorda yoki kech kuzda olinadi. [3].

Moychechak (Romashka) - *Matricaria L.* Moychechak turlari astradoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 15—40

sm keladigan bir yillik o't o'simliklar hisoblanadilar. Poyasi tik o'sadi, sershox bo'ladi. Barglari ingichka chizi'simon, o'tkir uchli segmentlarga teki marta patsimon ajralgan bo'lib, poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Gullari uzun bandli (yashil moychechakniki kalta bandli), poyasi bilan shoxlari uchidagi savatchaga joylashgan. Savatchaning tilsimon gullari oq rangli (yashil moychechakda tilsimon gullar bo'lmaydi), naychasimon gullari sariq, yoki yashil raigli bo'ladi. Moychechakning mevasi - pista hisoblanadi. Moychechak may oyidan boshlab kuzgacha gullaydi va mevasi yetiladi [4].

Dorivor tirnogul, kalendula (*Nogotki lekarstvennyye*)- *Calendula officinalis* L. Dorivor tirnogul yoki kalendula Astradoshlar (murakkabguldoshlar) - Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub bulib, buyi 30-60 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik xisoblanadi. Poyasi tik o'sadi, yaxshi shoxlangan. Barglari chuzik-teskari tuxumsimon, sertuk bulib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida ketma-ket o'rnashgan, poyasining yukori kismidagi barglari bandsiz, tuxumsimon yoki nishtarsimon. Gullaripoyasi bilan shoxlari uchidagi savatchaga joylashgan. Tilsimon gullari 2-3, ba'zan 15 kator, sarik, tuk-sarik yoki zargaldok rangli. Dorivor tirnogul iyun oyidan kech kuzgacha gullaydi, mevasi iyuldan boshlab yetiladi [4].

Tadqiqot uslublari. Tajribalarni amalga oshirish, keyingi qaydlar va biologik samaradorlikni hisoblash O'zbekiston Respublikasi Davlat kimyo komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Uslubiy ko'rsatmalar..." (2004 y.) asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Dorivor o'simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda farmasevtikada ulardan keng foydalanishni tashkil etish bo'yicha davlatimiz tomonidan qarorlar qabul qilingan. Maqsad farmasevtika korxonalariga sifatli dorivor o'simlik mahsulotlarini etkazib berish. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot ish rejasiga asosan dorivor o'simliklarga zarar etkazadigan kasalliklarga qarshi kurashda biopreparatlardan foydalanishni amalga oshirdik.

2023 yil Toshkent viloyati Parkent tumani "Zamona Ra'no" xo'jaligida dorivor o'simliklardagi kasalliklarni kuzatildi. O'simliklardan yalpiz, tirnogul, moychechak, na'matakda eng ko'p uchraydigan kasalliklardan ildiz chirish va un shudring bilan shikastlanishi kuzatildi. Xo'jalikda ildiz chirish kasalligi nazorat variantida 21,4% tarqalganligi aniqlandi. Ilmiy-tadqiqotlarda bioprepartlardan foydalanildi va ularning

biologik samaradorligi jadvallarda to'liq aks ettirilgan. Ildiz chirish kasalligi uchun biz Vitavaks 200 FF 34% s.sus.k. bir tonna urug' hisobiga 5,0 litr andoza sifatida qo'lladik. Tajribadagi preparatlar Fitolavin P-4 65% sus.k 2 xil sarf me'yorda sinovdan o'tkazildi. Nazoratga nisbatan preparatlarni ildiz chirish kasalligiga qarshi tirnoqgul o'simligi urug'i dorilab ekilganda biologik samaradorlik andozada 86,4%, Fitolavin 1,5 litr sarf me'yorda 86,4% va P-4 65% sus.k. preparati 4,0 litr me'yorda ishlatilganda 92,5% samaradorlikga erishildi.

Iqtisodiy zarari yuqori bo'lgan kasalliklardan un shudringga qarshi kurashda Pirazol n.kuk. va biopreparatlardan Orgamika f.s. 2,0 litr sarf me'yorda qo'llanildi. Barcha preparatlar tirnoqgul dorivor o'simligining o'suv davrida amalga oshirildi. Nazorat variantida kasallik tarqalishi 36,8% ni tashkil etgan bo'lsa, shu nazoratga nisbatan preparatlarning biologik samarasi aniqlandi. Tajribadagi variantlarda un shudring 7,6-8,1% ni tashkil etdi.

1-jadval

Dorivor o'simliklardagi ildiz chirish kasalligiga qarshi biopreparatlarning samaradorligi (Toshkent viloyati, Parkent tumani, 2023 y.)

№	Variantlar	Sarf me' yori l/t	Kasallik tarqalishi, %	Kasallik rivojlanishi, %	Biologik samaradorlik, %
1.	Nazorat -dorilanmagan	-	21,4	15,1	-
2.	Vitovaks 200FF 34% (andoza)	5,0	2,9	0,7	86,4
3.	Fitolavin	1,0	3,5	1,2	83,6
4.	Fitolavin	1,5	2,9	1,1	86,4
5.	P-4 65% sus.k.	3,0	1,8	0,9	91,5
6.	P-4 65% sus.k.	4,0	1,6	0,6	92,5

2-jadval

Dorivor o'simliklardagi un shudring kasalligiga qarshi biopreparatlarning samaradorligi (Toshkent viloyati, Parkent tumani, 2023 y.)

№	Variantlar	Sarf me' yori l/t	Kasallik tarqalishi, %	Kasallik rivojlanishi, %	Biologik samaradorlik, %
1.	Nazorat –dori sepilmagan	-	36,8	15,7	-
2.	Diffen Super 55% (andoza)	0,2	2,9	1,1	92,1
3.	Pirazol n.kuk.	0,1	7,6	3,4	79,3

4.	Orgamika f.s	2,0	8,1	3,6	78,0
----	--------------	-----	-----	-----	------

Biologik samardorlik andoza variantida 92,1% ni tashkil etdi. Pirazol preparati 0,1l/ga ishlatilganda biologik samardorlik 79,3% ga teng bo'lgan bo'lsa, biopreparatlardan Orgamika hektariga 2,0l/ga purkalganda 78,0% ni tashkil etdi.

Хулоса. Demak, nomi bilan dorivor o'simliklar uchun preparatlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ildiz chirish kasalligiga Fitolavin -1,5% l/ga, P-4 65% sus.k. 3,0 l/t urug'lik material dorilab ekilganda 86,4-91,5% samaradorlikga erishildi. O'suv davrida unshudring kasalligiga qarshi kurashda orgamika f.s. 2,0 l/ga sarf me'yorida purkalganda 78,0% biologik samaradorlikga erishildi. Bu bioprepartlar uchun yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiev M.N., Shalnev V.G., Ibragimov A.Ya. Shifobaxsh ne'matlar.- Toshkent, "Mexnat" nashriyoti, 1986. - 136 b.
2. Tuxtaev B.Yo., Madkamov T.X., Tulaganov A.A., Mamatkarimov A.I., Maxmudov A.V., Allayarov M.U. Dorivor va ozukabop o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma - Toshkent, 2015.-137 b.
3. Xodjaev Sh.T.Insektitsid,akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent,2004 y.83-90 bet.
4. Xolmatov X.X., Xabibov. Uzbekiston dorivor o'simliklari. Toshkent, 1971.
5. Xolmatov X.X., Kosimov A.I., Dorivor usimliklar. - Toshkent,Ibn Sino nomidai nashriyot-matbaa birlashmasi, 1994. - 368 b.